

**TARIXIY ONG VA MILLIY XOTIRANI TIKLASHDA MILLIY-OZODLIK
HARAKATLARINING O‘RNI. SIYOSIY OMILLAR
(1892 YIL TOSHKENTDAGI “VABO ISYONI”)**

Shaxnoza Qalandarovna Abdinazarova,
O‘zFA Tarix instituti tayanch doktoranti
E-mail. shaxnozaabdinazarova660@gmail.com.

Annotatsiya. Turkistondagi rus hukumatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi olib borilgan dastlabki yirik milliy-ozodlik harakati sifatida tarixda nom qoldirgan “Vabo isyoni” qo‘zg‘oloni 1892 yil 24 iyunda Toshkentda bo‘lib o‘tadi. Ushbu qo‘zg‘olonning tarixiy ahamiyati, mafkuraviy asosi, yuzaga keltirgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy omillari va oqibatlarini bugungi kun nuqtai nazaridan o‘rganish hamda ilmiy tahlil qilish dolzarb masaladir. Shu jihatdan ushbu maqolada qo‘zg‘olonni keltirib chiqargan siyosiy omillar haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: milliy-ozodlik harakati, vabo, siyosat, boshqaruv, ko‘chirish, soliq, jazo.

Abstract. The “Cholera Uprising”, which took place in Tashkent on June 24, 1892, is recognized in history as one of the first major national liberation movements directed against the colonial policy of the Russian administration in Turkestan. This uprising is distinguished by its socio-political nature, ideological foundations, and underlying causes. The emergence of the revolt was largely influenced by the colonial system of governance, strict administrative measures imposed on the population, taxation policies, and sanitary regulations. Furthermore, the consequences of the uprising had a significant impact on subsequent socio-political processes in Turkestan. The article analyzes the political factors that led to the uprising from the perspective of modern historiography.

Keywords: national liberation movement, Cholera Uprising, colonial policy, governance system, taxation policy, sanitary measures, social discontent, punitive measures.

Аннотация. «Холерный бунт», произошедший 24 июня 1892 года в Ташкенте, вошёл в историю как одно из первых крупных национально-освободительных движений, направленных против колониальной политики российской администрации в Туркестане. Данное восстание отличается своей социально-политической сущностью, идеологическими основами и причинами возникновения. Его возникновение было во многом обусловлено колониальной системой управления, жёсткими административными мерами, применявшимися к населению, налоговой политикой и санитарными мероприятиями. Кроме того, последствия восстания оказали значительное влияние на последующие социально-политические процессы в Туркестане. В статье анализируются политические факторы, приведшие к восстанию, с точки зрения современной историографии.

Ключевые слова: национально-освободительное движение, холерный бунт, колониальная политика, система управления, налоговая политика, санитарные меры, социальное недовольство, карательные меры.

Kirish. Turkiston o‘lkasidagi yirik milliy-ozodlik harakatlarining debochasi hisoblangan 1892 yilgi Toshkent qo‘zg‘oloni shu vaqtgacha o‘zining ahamiyati va mavqeiga monand ravishda yetarli darajada o‘rganilmadi va ommalashtirilmadi. Ayniqsa, vabo kasalini tarqalishini g‘alayonning asosiy sababi tariqasida ro‘kach qilish katta xatodir. Shularga qaramay, tarixiy asarlarda va imperiya davriy matbuotida chop etilgan ayrim ishlar qo‘zg‘olon tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga molikdir. Faqat ulardan tanqidiy ravishda foydalanish lozim. Bularga Terentev, Dobrosmislov,

Mallitskiy, Likoshin kabi chor hukumati vakillarining hisobot va yozishmalarini keltirishimiz mumkin.

Toshkent va umuman, Turkiston o'lkasining 19-yuz yillik ikkinchi yarmidagi tarixiga bag'ishlangan, o'sha davrlarda yashagan rus olimlari va podsho hukumati ma'murlari qalamiga mansub bo'lgan ilmiy asarlarga kelganda shuni aytish lozimki, ularning ko'pchiligi mustamlakachilik tuzumi siyosati ruhida yozilgan bo'lib, tanqidiy qarashni taqozo etadi. Ammo ulardagi ko'plab ma'lumotlar Toshkentning o'sha davrdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yoritishda muhim ahamiyatga ega. 1947, 1956, 1971 yillarda nashr etilgan “O'zbekiston SSR tarixi” asarining jildlari, M. Vahabov, F. Ozodayevning ishlari shular jumlasidandir.

Mustaqillik yillarida ushbu tadqiqot mavzusini o'rgangan olimlarimiz X. Yunusova, H. Ziyoyev, D. Ziyoyeva, J. Ismoilovalarning ishlarida milliy-ozodlik uchun kurash, mustaqillik, yurtni bosqinchidan himoya qilish g'oyasi nuqtai nazaridan tahlil qilinganligini anglash mumkin.

Muxokama va natijalar. Toshkent shahri 1865 yil bosib olingach, Toshkent shahri Turkiston general-gubernatorligining markazi etib belgilanadi. 1868 yil yanvarda shahar boshlig'i boshqarmasi joriy etilib, shahar boshlig'i lavozimi Sirdaryo viloyati harbiy gubernatoriga bo'ysunadigan tartib shakllantiriladi. Ushbu vazifani bajaruvchi amaldor shahar ahli orasida katta mavqega ega bo'lgan. Toshkentning “eski shahar” hududidagi daha oqsoqollari bevosita shahar boshlig'ining ko'rsatmasi asosida ish ko'rib, barcha masalalarda unga murojaat qilgan. Toshkent shahrining boshliqlari uchun qarorgoh Bo'zsuvning chap qirg'og'ida joylashgan bo'lib, bu vazifadagi amaldor “yangi shahar” hududida turib butun shaharni nazorat qilgan. “Harbiy-xalq boshqaruvi” Toshkent shahri nazoratida ham o'z aksini topib, yuqori harbiy amaldorlar shahar boshlig'i sifatida bu vazifani amalga oshirganlar. Toshkent shahar boshlig'iga keng vakolatlar ishonib topshirilganligi 1886 yilgi va undan keyingi “Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risida”gi nizomning 69-moddasida alohida qayd etib qo'yilgan. [1, B. 39.]

Imperiya hukumati Toshkent shahar aholisini o'lkada boshqaruv uchun tajriba qilib oldi, ya'ni bunda aholining islom qoidalari ostida yashaganligini inobatga olib siyosat olib borish asosida imperiya hukumatiga bo'ysundirish mumkin deb hisoblaydi. Shu sababli ham hukumat 1868 yilning boshida shahar boshqaruvi va yerlik amaldorlarga saylov o'tkazish yuzasidan tashkil etilgan maxsus komissiyaga shu tomonini alohida hisobga olib faoliyat olib borish vazifasini yuklagan. Bu komissiya Toshkent shahrida ilk marta milliy lavozimlarga saylovlarni 1868 yil 10 aprelda o'tkazib bo'lgach, faoliyatini tugatilishi belgilanadi. Shu bois Toshkent shahri boshqaruviga Rossiya imperiyasida 1870 yilda qabul qilingan shahar Nizomi yangiliklarini kiritish, shahar

xo‘jaligini boshqarish uchun Toshkentda Duma tuzish masalasi muhokama bo‘la boshlaydi. Ushbu maqsadda 1877 yil iyunda Toshkentda maxsus komissiya tuzilib, unga shahar dumasiga saylov tartiblari ishlab chiqish topshiriladi. Shahar ijtimoiy boshqarmasi qaytadan tuzilib, uning tarkibida mahkama, дума va saylov yig‘inlari tashkil etiladi. Saylov natijasida dumaga 72 ta a‘zo saylanadi, ularning 1/3 qismi, ya‘ni 30 foizi mahalliy aholi vakillari edi, xolos. [2, B. 54.]

Turkistonda viloyat, tuman va shahar boshqaruv tizimi joriy qilinib, u rus hukumatiga tegishli fuqarolik va harbiy amaldorlar tomonidan boshqarilardi. Shu tariqa imperiya hokimiyati ko‘plab tub yerlik yetakchilarni siyosiy ta‘sirdan mahrum qildi. Bundan tashqari, soliq va yer islohotlari ularning iqtisodiy ta‘sirini ham zaiflashtirdi.

Tinchlikni saqlash hamda tashqi kuchlardan zaxiralarga kirishni himoya qilish vazifasi avval yerlik siyosiy vakillar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, endilikda, bu ishlar asosan, rus qo‘mondonlari va gubernatorlari, shu bilan birga ularning ma‘muriy-harbiy hodimlari tomonidan boshqarila boshladi. [3, str. 208.] Shu sababli, jumladan, bir qishloqni boshqa hududga ko‘chirish uchun albatta hukumat amaldorlarining ruxsati talab etilgan. Chor hukumati endilikda aholidan soliqni ishlab chiqarilgan mahsulot hisobidan ola boshladi. 1880-1890 yillar ichida aholidan olinadigan soliqlar miqdori ikki marta ko‘payib ketdi. Yangi qonun tartiblariga ko‘ra, umumiy olinadigan daromaddan qat‘iy nazar, savdogar savdo qilish huquqi uchun, hunarmand mahsulot ishlab chiqarish huquqi uchun soliq to‘lashga majbur bo‘ldi. Hattoki, narx-navoning ko‘tarilishi, hukumatning tazyiqi ostida mahalliy savdogarlar va hunarmandlarning daromadlari kamayib borishi soliq to‘lashning yangi tartiblarida e‘tiborga olinmadi. Bu kabi tadbirlar 1890 yillarning boshida va o‘rtalarida bo‘lib o‘tgan ko‘p g‘alayonlarga sabab bo‘lgan. [4, B. 36.]

Boylik va unumli yerlar shaharning yuqori tabaqa vakillari qo‘lida to‘plangani barobarida, chor hukumati va sanoatchilari oddiy xalqni ezish hisobiga tobora boyib bordilar. Bu holat shaharda sinfiy qarama-qarshilikning keskinlashishiga olib keldi. Xalq ommasi og‘ir soliqlarga hamda huquqsizlikka qarshi shikoyatlar yozib, o‘zlarining noroziliklarini bir necha marta bildirdilar. Ammo hukumat buni nazar-pisand qilmadi. Aholining turmush darajasi tobora yomonlashib bordi. Ustiga ustak, 1892 yilning 7 iyun kuni shaharda vabo kasali tarqalganligi ma‘lum bo‘ldi.

Vabo isyonlari ko‘pincha rus hukumatiga qarshi ommaviy xalq harakati shakllaridan bo‘lib kelgan. Jumladan, birinchi Nikolay hukmronligi davrida Peterburgda 1830 – 1831 yillarda vabo g‘alayonlari bo‘lganligi ma‘lum. 90-yillarning boshida Markaziy Rusiyada vabo isyonlari (Tambov harakati va boshqalar) bo‘lib o‘tgan. [5, B. 81.]

Qo‘zg‘olonning asl sababini mustamlaka ma‘muriyat mansabdorlarining o‘zlari ham yaxshi anglaganlar. Jumladan, N. P. Ostroumov shunday yozgan edi. “Ko‘p jihatdan ayb o‘zimizda, albatta. Ularning fe‘l-atvorini va qonun-qoidalarini o‘rganganimiz yo‘q va hali ham o‘rganmayapmiz. Bunda ayb faqat vaboning o‘zida emas, u sabr-kosasini to‘ldirib-toshirib yuborgan so‘nggi tomchidir. Norozilik allaqachon kuchayib, yig‘ilib kelmoqda edi, keyin esa boshqa noroziliklar qo‘shilishi bilan birdaniga qo‘zg‘olon boshlanib ketdi”. [6, B. 350.]

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Toshkent milliy-ozodlik harakati chor bosqinchilik siyosatining salbiy oqibatlari natijasida yuzaga kelib, ushbu qo‘zg‘olon xalqning siyosiy ongini yanada oshishiga olib keldi. Ushbu qo‘zg‘olon keyingi yillardagi qarshilik harakatlarga zamin yaratdi deya olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Тангиров О.Э. XIX аср охири – XX аср бошларида Тошкент “эски шаҳар” қисми маъмурий бошқаруви ва ижтимоий ҳолати. – Т.. 2022, 39-бет.
2. Зиёева Д. XIX аср охири – XX аср бошларида Тошкент шаҳридаги маъмурий-худудий ва ижтимоий ўзгаришлар. // “Ўзбекистон тарихи” журнали. 2009, 1-сон. 54-бет.
3. Пауль Георг Гайсс. Доцарская и царская Центральная Азия. – Л.. 2003. стр. 208.
4. Юнусова Х. 1892 йилда Тошкентда халқ кўзғолони. Т.ф.н. дисс. – Т.. 1995, 36-бет.
5. Ўзбекистон ССР тарихи. – Т.. 1971, 81-бет.
6. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.. 2000, стр. 350.